

**CHEY TILLARINI INTENSIV O'QITISHDA FOYDALANILADIGAN
ZAMONAVIY TA'LIM METODLARI**
**СОВРЕМЕННЫЕ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫЕ МЕТОДЫ, ИСПОЛЬЗУЕМЫЕ
В ИНТЕНСИВНОМ ОБУЧЕНИИ ИНОСТРАННЫМ ЯЗЫКАМ**
**MODERN EDUCATIONAL METHODS USED IN INTENSIVE TEACHING
FOREIGN LANGUAGES**

Nematova Maxsuma Oybekjon qizi

Farg'ona davlat universteti talabasi

nematovamaxsuma@gmail.com

Annotatsiya: Chet tilini o'qitishning intensiv metodini yaratishga ijtimoiy ehtiyoj, jamoat va davlat manfaatlari hamda ijtimoiy psixologiya, shaxs psixologiyasi, muloqot psixologiyasi, psixolingvistika kabi fanlarning rivojlanishi sabab bo'ldi. Ilmiy, iqtisodiy, madaniy va turistik aloqalarning kengayishi chet tilini kommunikativ darajada etarli darajada tez o'zlashtirish zaruratini keltirib chiqardi, bu esa chet tilida so'zlashuvchilar bilan chet elda va mamlakatda (tarjimonsiz) muloqot qilish imkonini beradi. Tinglab tushunish til o'rganishning eng muhim qismlaridan biridir. Bunda o'quvchi bir paytning o'zida so'zlovchining talaffuzi, grammatik qoidalarga rioya qilganligi, so'z boyligi va uning ma'nolariga e'tibor berishi talab qilinadi. Bugungi globallashuv jarayonida internet hayotimizning har bir jabhasini qamrab olgan.

Kalit so'zlar: Metodika, innovatsiya, chet tili, kommunikatsiya, ko'nikma, malaka, didaktika, madaniyatlararo muloqot.

Аннотация. Интенсивный метод иностранного языка вызван социальными потребностями, общественными интересами и государственными интересами, а также социальной психологией, развитием психологии, развитием психологии коммуникации, такой как психологическое ограждение. Расширение научных, экономических, культурных и туристических отношений является одной из важных частей. В этом случае студент должен одновременно следовать произношению, следуя грамматическим правилам, словарным

запасам и его значениям. Во время сегодняшней глобализации Интернет охватывает каждый аспект нашей жизни.

Ключевые слова: методы, инновации, иностранные языки, коммуникации, навыки, квалификация, дидактика, межкультурное общение.

Annotation: The intensive method of foreign language is caused by social need, public and state interests, and social psychology, the development of psychology, the development of communication psychology, such as psychology enclosure. The expansion of scientific, economic, cultural and tourist relations is one of the important parts. In this case, the student is required to follow the pronunciation at the same time, following grammatical rules, vocabulary and its meanings. During today's globalization, the Internet covers every aspect of our lives.

Keywords: Methods, innovation, foreign languages, communications, skills, qualifications, didactics, inter-cultural communication.

Xorijiy tillarni o'qitishda ilg'or zamonaviy texnologiyalarning ahamiyati beqiyos. Zero ta'lif jarayonida texnologik vositalardan foydalanish chet tillarini o'rganishning har bir bo'limida bilimlarni o'zlashtirish va mustahkamlashda beqiyos rol o'ynaydi. Til o'rganish kishilik jamiyatida bag'oyat muhim sohalardan biri hisoblanadi. Muloqot vositasi bo'l mish tilni tabiiy muhitda ya'ni oilada, jamoatchilik orasida yoki uyushgan holda amaliy egallash mumkin. Til hodisalariga oid bilimlar esa nazariy jihatdan o'rgatiladi. Xalqaro munosabatlar avj olgan zamonamizda tillarni bilish, ayniqsa ko'p tillilik ulkan ahamiyat kasb etadi. Mamlakatimizda tahsil oladigan o'quvchi va talabalar odatda uch tilni o'rganadilar. Ushbu tillar maxsus nomlar bilan yuritiladi. Bular quyidagilar: ona tili, ikkinchi til, va chet til. Ona tili tafakkur shakllanishida alohida xizmat o'taydigan birinchi til hisoblanadi. Ikkinchi til haqida so'z yuritilganda, unga boshqa millat vakillaridan iborat qardoshlar, qo'shnilar tili sifatida qaraladi.

Ilmiy yo'nalishlarda yangilik va innovatsiya tushunchalari o'zaro farqalanadi. “Yangilik”- bu vosita, yangi metod, metodika, texnologiya ma'nosini anglatadi. “Innovatsiya”- bu ta'lif, ma'lum bosqichlari bo'yicha rivojlanadigan jarayon

hisoblanadi. Jahon ilm-fan taraqqiyoti kundan kunga gurkirab, rivojlananib bormoqda. Aynan bu ijobiy rivojlanish bizning diyorimizga ham o’z ta’sirini o’tkazdi. Ilm dunyomizga ilg’or innovatsion texnologiyalar tatbiq etilmoqda. Buning ijrosi sifatida, Yurtboshimiz tomonidan joriy yilni “Yoshlarni qo’llab-quvvatlash va aholi salomatligi yili” deb nomlashi ham mamlakatimiz yoshlarinining ma’suliyatini yanada oshirdi. Ta’lim sohalariga ilg’or, zamonaviy innovatsion texnologiyalarning keng tatbiq etilishi ham chet til o’rganayotgan yoshlar uchun keng imkoniyatlar, marralar eshigini ochdi, desak xato bo’lmaydi.

Metodikaning asosiy tushunchalari – metod, usul, prinsip. Didaktika- nimani o’rgatamiz? O’qitish mazmuni hisoblanadi. Metodika – qanday o’rgatamiz? Ta’lim usullari va metodlari demakdir. Metod – metodika tushunchasi grek-lotincha “metodos-“metodus” so’zidan olingan bo’lib, ma’lum maqsadga eltuvchi yo’llar, usul ma’nosini anglatadi. Turli adabiyotlarda atamaning tor va keng ma’nosini uchratish mumkin. “Metodika” atamasi tor ma’noda ta’limning konkret dars jarayoni bilan bog’liq tushunchani anglatadi. Mashg’ulotlarni rejalshtirish va o’quv materiallarini tayyorlash bilan bog’liq bo’lgan ko’rsatmalarni qamrab oluvchi boshqariladigan dars jarayoni sifatida talqin etiladi.“Metod” atamasi keng ma’noda o’quv materialini tanlash, tabaqlash va taqsimlanishni nazarda tutadi. Germaniya Federativ Respublikasida 60-yillardan boshlab “didaktika” va “metodika” tor ma’noda qo’llanilib kelinmoqda. Shunga ko’ra didaktika ta’lim mazmuni nima o’rgatiladi? Metodika esa ta’lim usullari qanday o’rgatiladi? Masalalari bilan shug’ullanadi. Chet tillarini o’rganish faqat aqliy tarbiya vositasi emas, balki o’zga madaniyat ta’limiy boyliklari va qadriyatlari bilan tanishish va ularni o’z madaniy hayotiga tadbiq qilish orqali kishi shaxsining shakllanish jarayoni hisoblanadi. Yevropada chet tillarni o’rganish uzoq vaqt yuqori darajadagi ta’lim olishda imtiyoz sanaladi va jamoat maktablarida imtiyozga ega bo’lgan kishilarni tarbiyalash deb qaraladi.

Dars jarayonlarida multimedia vositalaridan foydalanishning ahamiyati beqiyosdir. Jumladan, slaydlar orqali darsni tashkil qilish, o’quvchilarni xorijiy til darsi boshlanishiga o’ziga jalb qiluvchi usullar (warm-up activities)dan foydalanish,

turli xil rangdagi ko'rgazmalardan foydalanish orqali darsni mazmunli tashkil qilishga hamda o'quvchilarning mavzuni to'liq o'zlashtirishiga erishish mumkin. Shuningdek, maktablarda dars jarayonlarini interfaol o'yinlar orqali tashkil qilish ham juda katta ijobiy natijalar berishi isbotlangan. Ma'lumki, darsning turli xil o'yinlar asosida o'tilishi o'quvchilarning kreativ va tanqidiy fikrlash imkoniyatlarini kashf etibgina qolmay, balkiularning diqqatni jamlash, muammoli vaziyatlardan chiqish yo'llarni izlashko'nikmalarini ham rivojlanтирди. Chunki, o'yinlardan foydalanishning asosini o'quvchini faollashtiruvchi va jadallashtiruvchi faoliyat tashkil etadi. Psixologlarning ta'kidlashlaricha, o'yinli faoliyatning psixologik mexanizmlari shaxsning o'zini namoyon qilish, hayotda barqaror o'rmini topish, o'zini o'zi boshqarish, o'z imkoniyatlarini amalga oshirishning fundamental ehtiyojlariga tayanadi. Har qanday o'zin zamirida umumiyligini qabul qilingan ta'lim prinsiplari, taktikasi yotishi kerak. O'quv o'yinlariga o'quv predmetlari asos qilib olinishi kerak. O'yinlar jarayonida o'quvchi oddiy darsga qaraganda bu mashg'ulotga qiziqibroq yondashadi va o'zini erkinroq tutadi. Bu ayniqsa tabiatan uyatchang va jamoaga tez qo'shila olmaydigan o'quvchilar bilan ishlashni osonlashtiradi. Ularning kirishimlilik qobiliyatlarini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ta'kidlash lozimki, o'yin eng avallo, o'qitishning bir usulidir. O'quvchilar o'yinli darslarga qiziqib qatnashadilar, g'alaba qozonishga intiladilar, pirovardida bilim va ko'nikmalarini ham boyitib boradilar. Masalan o'quvchi ingliz tilidagi o'yinda qatnashish jarayonida o'ziga bo'lgan ishonchni mustahkamlaydi, men bu tilda gapira olarkanman, tinglab tushuna olarkanman, yoza olarkanman, deb motivatsiya oladi.

Xulosa qilib aytganda, bugungi shiddat bilan rivjlanayotgan davrda chet tillarini o'rgatishga ehtiyoj yuqori bo'lgan bir davrda, ta'lim jarayonida zamonaviy metodlardan, innovatsion ta'lim texnologiyalaridan unumli foydalanish bu jarayonni tez va samarali bo'lishiga olibkeladi. Xususan, texnologik vositalar chet tili o'rganishning har bir ko'nikmali (o'qish, yozish, tinglab tushunish va gapiresh)ga qo'l keladi. Mamlakatimiz ta'lim tizimi o'z oldiga barkamol, yetuk va erkin fikrlovchi shaxsni tarbiyalashni o'z oldiga maqsad qilib qo'yar ekan, biz barcha

bo'lajak o'qituvchilar zamonaviy metodlar va texnologiyalarni o'rganib ulardan samarali foydalanangan holda yoshlarga chet tillarini mukammal o'rgatish orqali yurtimiz ravnaqiga o'z hissamizni qo'shishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Великанова А. В. Компетентностно-ориентированный поход к образованию / А. В. Великанова // Серия «Компетентностно-ориентированный поход к образованию». – Вып. 2 – Самара : Профи, 2002. – С. 92
2. Bekmurodova.U.B. “Ingliz tilini o'qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish” mavzusida referat., Toshkent 2012-yil.
3. N. Q. Xatamova, M.N. Mirzayeva. “INGLIZ TILI DARSLARIDA QO'LLANILADIGAN INTERFAOL USULLAR” (uslubiy qo'llanma), Navoiy, 2006, 40 bet.
4. Joraboyev, B. B. O. (2021). Using authentic materials on english lessons. Academic research in educational sciences, 2